



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Egamnazarova Muslima Erkin qizi

Qayumova Surayyo Abdullo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti 6-BT-S-22 ta'lim yo'nalishi

4-bosqich talabasi

+99899 06340 38

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346855>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning tafakkurini, mustaqil fikrlashini va ijodiy yondashuvini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bumerang" kabi metodlarning o'quvchilar bilimni faollashtirishdagi o'rnini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: interfaol metod, tafakkur, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, dars jarayoni.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития мышления и творческого подхода учащихся начальных классов через использование интерактивных методов обучения. Анализируется эффективность таких методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Инсерт», «Бумеранг» в активизации познавательной деятельности школьников.

Ключевые слова: интерактивные методы, мышление, самостоятельное мышление, творчество, учебный процесс.

Annotation: This article discusses the development of students' thinking and creativity in primary education through the use of interactive teaching methods. The effectiveness of methods such as "Brainstorming," "Cluster," "Insert," and "Boomerang" in activating students' cognitive activity is analyzed.

Keywords: interactive methods, thinking, independent thinking, creativity, learning process.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. Zero, bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, ijodkorlik salohiyatini yuksaltirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, interfaol metodlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Interfaol metodlar — bu o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, mulohaza yuritish va xulosa chiqarish imkonini beruvchi ta'lim vositalaridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan faol, hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, ularning tafakkurini rivojlantirishda o'yinli va interfaol shakllardan foydalanish samarali natija beradi.

Masalan, "Aqliy hujum" metodi o'quvchilarning erkin fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi, "Klaster" usuli esa mavzular orasidagi mantiqiy bog'liqlikni anglashga yordam beradi. "Insert" texnologiyasi o'quvchilarni matn bilan ishlashga, asosiy g'oyani ajrata olishga



o'rgatadi. "Bumerang" metodida esa o'quvchilar bir-birining fikriga munosabat bildiradilar, bu ularning tahliliy tafakkurini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi — interfaol metodlarni to'g'ri tanlash, ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, mavzu mazmuni va dars maqsadiga muvofiq qo'llashdir. Har bir darsda o'quvchini mustaqil fikrlashga undovchi savollar, muammoli vaziyatlar, kichik guruhli mashg'ulotlar orqali tafakkur jarayonini faollashtirish mumkin.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mantiqiy tafakkurni o'rgatishning pedagogik asoslari": Umida Sherali qizi Rahimova ushbu maqolasida matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik usullari va samaradorligini tahlil qilgan. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari": Ushbu maqolada modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va afzalliklari yoritib berilgan. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishning nazariy jihatlarini": Saodat Toshtemirova Abdurashidovna ushbu maqolasida tarixiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan tushunchalarning mazmun-mohiyati va nazariy asoslarini tahlil qilgan. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limiy o'zlashtirishning mavjud imkoniyatlari": Shirin Kamolova tomonidan yozilgan ushbu maqolada interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning ta'limiy o'zlashtirish jarayoni masalalari o'rganilgan. Ushbu adabiyotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirishning turli jihatlarini yoritib, pedagogik jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usul va yondashuvlarni taklif etadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun faqatgina matematik topshiriqlar bilan cheklanib bo'lmaydi. Adabiyot, tabiatshunoslik, musiqa va boshqa fanlar orqali ham tafakkurni kengaytirish mumkin. Bolalar mustaqil fikrlash va xulosa chiqarishga o'rgatilganda, ular nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Pedagoglarning yangi metodikalarni o'zlashtirish darajasi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu natijalarga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish lozim. Tavsiyalar Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirishni yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni keng joriy etish Muammoli ta'lim – o'quvchilarga aniq bilimni tayyor holda emas, balki savoljavob, muammoli vaziyatlar orqali o'zlari xulosa chiqarishiga imkon berish. Didaktik o'yinlar – o'quvchilarni faol fikrlashga undovchi mantiqiy o'yinlar, aqliy hujum, assotsiativ fikrlash mashqlarini darslarga joriy qilish. Fanlararo bog'liqlik – tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni matematika, tabiatshunoslik, ona tili va o'qish savodxonligi darslariga integratsiya qilish. Interfaol metodlar – "Fikrlar daraxti", "Fishbone", "Debatlar", "Rolli o'yinlar" kabi texnikalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki aynan shu yoshda bola fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy bog'liqliklarni tushunish, muammolarni hal qilish kabi intellektual qobiliyatlarini shakllantira boshlaydi. Mavzu bo'yicha tahlil qilingan adabiyotlar tafakkurni rivojlantirish



jarayonining turli jihatlarini yoritadi. Quyida ushbu muammo atroflicha muhokama qilinadi. Tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari: psixolog va pedagog olimlar boshlang'ich sinf yoshida bolalarning tafakkuri asosan konkret-obrazli shaklda ekanligini ta'kidlaydi. Shu sababli, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun ko'proq vizual tasvirlar, o'yinlar va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan ta'lim metodlarini qo'llash lozim. Lev Vygotskiy va Jean Piaget kabi olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bola tafakkuri tajribaga bog'liq holda rivojlanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda qiziqarli va muammoli vaziyatlar yaratish orqali bolalarni fikrlashga undash mumkin. Pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar: hozirgi kunda tafakkurni rivojlantirish uchun turli pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Muammoli ta'lim metodi – o'quvchilar mustaqil xulosa chiqarishlari uchun ularga savollar qo'yish va muammoli vaziyatlar yaratish orqali tafakkurni faollashtirish mumkin. Interfaol ta'lim – "Aqliy hujum", "Klaster", "Fishbone" kabi texnikalar orqali o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilishga va mantiqiy tahlilga undash samarali usullardan hisoblanadi. Didaktik o'yinlar – ayniqsa, boshlang'ich sinflarda turli didaktik o'yinlar va kreativ topshiriqlar tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi..

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlardan foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini, ijodkorligini va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'z darsini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy metodlarni qo'llashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch". — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mavlonova R. va boshq. "Pedagogika". — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.
3. Jumayev M. "Ta'limda interfaol metodlar". — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.